

## **O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING ILK YILLARIDA ZOMIN TUMANI TARIXINI O‘RGANISHGA DOIR TIZIMLI REJALAR ISHLAB CHIQILISHI VA ULARNING AMALIYOTGA TATBIQ ETILISHI**

*To‘ychiyeva Dilnoza Ikromovna,  
Qarshi Davlat Universiteti doktoranti*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Zomin tarixining uzoq o‘tmishga borib taqalishini asoslovchi jihatlarni hisobga olgan holda, Mustaqillikning dastlabki yillarida Zomintarixinio‘rganish va umumlashtirish guruhining tashkil etilishi bilan bog‘liq jarayonlar, Jamg‘armaning Nizomi, maqsad va vazifalari, faoliyati va tashkilotning amalga oshirgan nazariy hamda amaliy ishlari haqida so‘z yuritiladi.*

*Kalit so‘zlar. Jamg‘arma, mablag‘, Nizom, yozma manbalar, arxeologik topilma, tarixiy-madaniy targ‘ibot, xo‘jaliklar, fond, moliyalashtirish, muzey, manba.*

## **РАЗРАБОТКА СИСТЕМНЫХ ПЛАНОВ ПО ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ ЗААМИНСКОГО РАЙОНА В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА И ИХ РЕАЛИЗАЦИЯ**

*Тойчиева Дилноза Икромовна,  
докторант Каршинского государственного университета*

*Аннотация. В данной статье рассмотрены процессы, связанные с организацией группы исследования и обобщения истории Заамина в первые годы независимости, с учетом аспектов, обосновывающих многолетнюю историю Заамина. Обсуждаются Устав Фонда, цели и задачи, деятельность и теоретические и практические работы организации.*

*Ключевые слова. Фонд, фонды. Устав, письменные источники, археологические находки, историко-культурная пропаганда, хозяйства, фонд, финансирование, музей, ресурс.*

## **DEVELOPMENT OF SYSTEMATIC PLANS FOR STUDYING THE HISTORY OF ZOMIN DISTRICT IN THE FIRST YEARS OF UZBEKISTAN'S INDEPENDENCE AND THEIR IMPLEMENTATION**

*Toychiyeva Dilnoza Ikromovna,  
doctoral student of Karshi State University*

*Abstract. In this article, the processes related to the organization of the Zomin history research and generalization group in the early years of independence, taking into account the aspects that justify the long history of Zomin history. The Charter of the Foundation, goals and objectives, activities and theoretical and practical works of the organization are discussed.*

*Keywords. Fund, funds. Charter, written sources, archaeological finds, historical and cultural promotion, farms, fund, financing, museum, resource.*

O‘zbekiston tarixining qadimiyligi va ulug‘vorligini belgilashda o‘lkamizda olib borilayotgan arxeologik qazishmalar, yozma manbalar, shuningdek, tuman va shahrlar tarixi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ahamiyati beqiyos. Xususan, qadimgi Ustrushona tarkibida bo‘lgan Zomin, rasman XX asrda tuman sifatida tashkil etilgan bo‘lsa-da, aslida uning tarixi qadimiy davrlarga borib taqalishi tarixchi va arxeologik olimlar tomonidanta‘kidlangan. Darhaqiqat, Zomin Ustrushonaning yirik shahri bo‘lib, u Movorounnahrning Samarqand, Buxoro, Shosh va Farg‘ona kabi shaharlarni bir-biriga bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan. Bugungi kunga qadar, Jizzax vohasida “Qadimiy yodgorliklar va ilmiy jihatdan saqlashga molik” deb ilm-fan tomonidan e‘tirof etilgan 220dan ortiq manzilgohlar borki, ularning kattagina qismi Zomin tumani hududidadir. Shu bilan birga, ularning yoshi ham xilma-hildir. Bu kabi omillar, qadim tosh davrlaridan boshlab bu joylarda yashab kelayotgan odamzod hayotining belgilari, yashash tarzi, madaniyati, urf-odatlar haqidagi bilimlarni o‘rganmoq, tahlil qilmoqni talab qiladi. Zomin qadimiyligini Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida quyidagi o‘lkalar sanoqda keltiriladiki, ular qatorida Zomin ham munosib o‘rin olgan. “Turon, Eron, Rum, Mag‘rib, Suriyo, Misr, Iroqi Arab, Iroqi A‘jam, Mozandaron, Keylon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jidda, Boxtar, Zomin, Hindiston, Dashti Qipchoq, Xorazm, Gurjiston, Armaniston, va Oltin O‘rda...”[1] Yuqoridagi va yana bir qancha tarixiy faktlardan kelib chiqqan holda, Zominning qadimiy tarixini tiklash, o‘rganish va tadqiq

etish jarayonlarini chuqurlashtirish bo'yicha mustaqilligimizning ilk yillaridanoq keng qamrovli ishlar boshlab yuborildi. Jumladan, 1993-yil 16-dekabrda "Zomin tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhi tuman jamg'armasini tashkil etish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Unga muvofiq, Jamg'arma xayriya-jamoatchilik tadbirlarini o'tkazishi, Zomin tumani tarixini o'rganish maqsadiga yo'naltirilgan moddiy ajratmalarni jamlashi va sarf qilishi; Jamg'arma faoliyatida ish-tutumidan qat'iy nazar har qanday tashkilotlar, muassasalar, xo'jaliklar, fuqarolar jamoalari va fuqarolar ixtiyoriy-homiylik va huquqiy-shartnoma tartibida ishtirok etishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga binoan har qanday soliqlar, davlat bojlari va boshqa to'lovlardan ozod etiladi; Jamg'arma huquqiy shaxs hisoblanadi hamda o'z hisob raqami muhrli varaqasi, tamg'asi va ramziga egadir.[2] Zomin tarixini o'rganish jamg'armasi o'z maqsad va vazifalariga ega bo'lib, ularni quyidagicha keltirish mumkin: Zomin o'lkasi tarixiga oid tarixiy, madaniy, tabiiy yodgorliklarni to'plash, sotib olish, milliy urf-odatlar, an'alarini targ'ib qilish, Zomin tarixiga oid kitob va majmualarni chop etish, yurt madaniy me'rosini tiklash; Xalq an'analari, havaskorlik, badiiy san'at va folklor-etnografik merosni o'rganish va taraqqiy topdirish; Zomin o'lkasi hayotiga oid tarixiy, badiiy, hujjatli kino va videofilmlarni suratga olish namoyish etish; Tarixiy-madaniy targ'ibotga, o'lka madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ko'rgazma-savdo salonlarini tashkil etishdan iborat. Zomin tarixini o'rganish va umumlashtirish jamg'armasining moddiy holatini tashkil etish va yaxshilash choralari ham ko'zda tutilgan bo'lib, Jamg'arma mablag'lari quyidagi mablag'lardanbunyod bo'lishi belgilab qo'yilgan: Muassis va homiyar ajratmalaridan, xayr-ehson mablag'idan, ijodiy uchrashuvlar, konsert tomoshalar va boshqa xayriya tadbirlaridan, moddiy xayriya ehsonlarini madaniy, esdalik va yodgorlik buyumlarini sotishdan kelgan tushumlardan, boshqa tushumlardan moliyalashtiriladi. Jamg'arma mablag'lari Boshqaruv guruhi yig'ilishi qarorlariga ko'ra Jamg'arma raisi ma'qullagan rejalarga asoslanib quyidagi ehtiyojlarga sarflanadi.

- Jamg'arma maqsad va vazifalarini bajarishga;[3]
- Jamg'arma faoliyatida ishtirok etayotgan xizmatchi va xodimlarga ish haqi, ijodiy, xayriya va mukofot to'lovlari amalga oshirishga.

Jamg'arma faoliyatida ishtirok etuvchi barcha ishchi va xizmatchilar amaldagi tartib va qoidalar doirasida sotsial muhofazalanadi.

Jamg'arma rahbarligi qoidalari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Jamg'arma muassislari umumiy yig'ilishi yiliga bir marta chaqiriladi u Jamg'arma boshqaruv guruhini, Jamg'arma raisi va o'rinbosarini saylaydi. Boshqaruv guruhi Jamg'arma faoliyatiga oid reja va dasturlarni muhokamalaydi, qarorlar qabul qiladi. Jamg'arma raisi o'rinbosari Boshqaruv guruhi qarorlariga muvofiq Jamg'arma raisi ma'qullagan rejalarga ko'ra mablag'lar sarfiyotiga ma'sullik qiladi, tegishli huquqiy shartnomalar imzolaydi. Jamg'arma nomidan tegishli huquqiy-yuridik munosabatlarga kirishadi. Rais o'rinbosari Jamg'arma raisi va Boshqaruv guruhi oldida Boshqaruv guruhi muassislar oldida javobgardir. Jamg'armaning huquqiy holati: Ushbu nizom jamg'arma faoliyati uchun yagona qo'llanmadir. Jamg'arma o'z faoliyati yuzasidan huquqiy jihatdan mustaqil, davlatning boshqa muassasalari, korxonalar va tashkilotlari zimmasidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydi.

Jamg'armaning tugatilishi[4] bilan bog'liq jarayonlar quyidagicha yoritiladi, mazkur arxiv hujjatida:

Muassislar yig'ilishi qarori bilan; Ushbu nizomda ko'zda tutilgan qoidalarga zid holatlar qayd etilganida tuman hokimining qarori bilan tugatilishi belgilab qo'yildi. Jamg'arma manzilgohi: Zomin tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg'armasi Boshqaruvi Zomin tumani markazi Zomin shaharchasidagi tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi binosida joylashgan.[5]

Zomin tumani tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhi tuman jamg'armasining muassislari yig'ilishida Zomin tumani hokimi, tuman hokimligi vakillari, xo'jalik va tashkilotlarning rahbarlari, fuqarolar jamoalarining vakillari, jami 46 kishi ishtirok etdi. Kun tartibida: Zomin tumani tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg'armasining yangilangan Nizomi to'g'risida, Jamg'arma boshqaruv guruhi, jamg'arma raisi va rais o'rinbosarini saylash, shuningdek, Jamg'arma faoliyatiga oid boshqa masalalar ko'rilib chiqildi. Yig'ilish avvalida, Zomin tumani tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhining rahbari lavozimida ishlab kelgan U.Abdualimovning axboroti tinglandi. Jamg'arma faoliyatida qator materiallar ochildi, - deydi, u o'z so'zida. Zomin tumani tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhi Zomin tarixiga oid uning qadim o'tmishiga doir bo'lgan juda ko'p ma'lumotlarni to'pladi va joylarda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bordi. Jumladan, tumanimizda yashab, yosh avlodga ta'lim beradigan

o'qituvchilar o'rtasida Zomin tarixini to'plash yuzasidan, materiallar, yodgorliklar yig'ish yuzasidan qator tashviqot ishlari olib borildi. Bu tashviqotning samarasi sifatida tumandagi "Sharq tonggi", "Jizzax haqiqati" gazetalariva respublikamizning qator matbuot xabarnomalari orqali maqolalar chiqishlar e'lon qilindi.[6] O'z ish faoliyatimiz davrida yutuqlar bilan qator nuqsonlar ham ish yurimiga to'siqlik qilgan obektiv va subektiv sabablar ham bo'lganligi haqida jamg'arma rahbari ta'kidlaydi. Jumladan iqtisodiy inqiroz va boshqa muammolarga duch kelingan bo'lsa-da, Jamg'arma Zomin tarixiga oid "Tog' sadolari"[7] kitobi chop etildi.

Zomin tumani hokimi mahkamasining X.Sattorov, Zomin muzeyi rahbari S.Qoraboyevlar tomonidan Zomin tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg'armasining yangilangan Nizomini o'qib berildi. Shundan so'ng Nizom bo'yicha muzokaralar o'tqazildi. "Sharq tonggi" gazetasi muharriri vazifasini bajaruvchi N.Muhiddinov, faxriy T.Oyboshev, "Mustaqillik" agroxo'jaligi rahbari M.Egizev, muhbir X.O'rinboyev, Zomin elektronika mexanik zavodidan A.Xoliqulov, faxriy O.Umarov va boshqalar Jamg'arma Nizomiga qo'shimchalar va takliflar kiritdilar va Nizomni yoqladilar. Shundan so'ng, nizom loyihasi ovozga qo'yilib, ko'pchilik tomonidan ma'qullanib, qabul qilindi. Jamg'arma boshqaruvi a'zolari etib, X.Sattorov, U.Abdualimov, S.Qoraboyev va Q.Xamdamova nomzodlariko'pgina ovoz bilan saylandi. Keyingi jarayonda esa, Zomin tumani hokimi N.Umarov Zomin tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg'armasi raisi etib, S.Qoraboyev esa Jamg'arma raisi o'rinbosari etib saylandilar. [7] Zomin tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhining yig'ilishida Jamg'arma boshqaruviga, Jamg'armaning yillik faoliyat rejasini tuzish, to'laqonlik faoliyat uchun ish lavozimlari jadvali va boshqa huquqiy hujjatlar yuzasidan chora-tadbirlar belgilash vazifasi topshirildi. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida, aniq sanalarda ko'rsatadigan bo'lsak, 1993-yil 16-dekabrda o'tkazilgan mazkur yig'ilish, ungacha bo'lgan Zomin tarixini o'rganish va umumlashtirish ishlari va yig'ilishdan so'ng belgilab olingan vazifalar o'sha davr, o'zbekiston tarixining bir bo'lagi hisoblanmish, Zomin tarixini o'rganish ishlari bir jasorat edi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish mahalida, iqtisodiy yetishmovchiliklar sharoitida, Zominning qadim tarixini tiklash, ma'daniy va ma'naviy boyliklarni xalqqa namoyon etish, tuman tarixini uzoq mingyilliklarga taqash, asoslar va turli tarixiy topilmalar ko'rinishida dalillash muhim ahamiyat kasb etardi. Sababi, bu ko'hna tarixni va undagi shonli voqealarni yosh avlodga yetkazish, boxabar qilish, bir so'z bilan aytganda Zominning qadim tarixini izsiz ketmasligi uchun Jamg'arma ko'pgina ilmiy va amaliy ahamiyatga molik ishlarni amalga oshira oldi – desak, mubolag'a bo'lmaydi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Zomin hozirgi kunda, hajm jihatdan nisbatan kichikroq tuman bo'lsa-da, rasmiy holatda tuman 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda Jizzax tumani bilan birlashtirilib, 1964-yil 31-dekabrda qayta tuzilgan) bo'lsa-da, asl Yoshi uzoq davrlarga borib taqalishi, tarixchilarning asarlari va arxeolog olimlar tadqiq etgan arxeologik topilmalar orqali asoslab berilgan. Zomin tarixini o'rganish ishlari tizimli ravishda mustaqillikning ilk yillarida boshlangan bo'lsa, bu jarayon hozirgi kunga qadar, ilmiy tadqiqotlar, arxeologik izlanishlar va etnografik yo'nalishlarda o'rganish ishlari davom etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Og'a Burgutli. Ko'hna Zomin. T. Cho'lpon nashriyoti. 1996. 21-b.
2. Fond M-0385, ro'yxat-1,yig'ma jild 87, 64-varaq
3. Fond M-0385, ro'yxat-1,yig'ma jild 87, 65-varaq
4. Fond M-0385, ro'yxat-1,yig'ma jild 87, 66-varaq
5. Fond M-0385, ro'yxat-1,yig'ma jild 87, 67-varaq (Ushbu Nizom Zomin tarixini o'rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg'armasi muassislarining 1993yil 16-dekabrda yig'ilishida qabul qilingan)
6. Fond M-0385, ro'yxat-1,yig'ma jild 87, 68-varaq
7. Og'a Burgutli. Tog' sadolari. –T.; "Mehnat" nashriyoti. 1992.
8. Fond M-0385, ro'yxat-1,yig'ma jild 87, 69-varaq
9. O'zME.2002.32-bet.